

## ALI QUSHCHINING SAMARQAND ILMIY AKADEMIYASIDAGI O'RNI

URAK PAZILOVICH LAFASOV

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent,**Toshkent davlat sharqshunoslik instituti,**[lafas1963@gmail.com](mailto:lafas1963@gmail.com)*

**Аннотация:** Ушбу мақолада “Ўз даврининг Батлимуси” сифатига сазовор бўлган буюк олим Али Қушчи, унинг отаси ва уларнинг табақаси тўғрисидаги маълумот берилган. Кутчи уруғи туркийларни озодликка олиб чиқсан буюк Кутлук (Кут+луғ, Гудулу), яъни Элтариш хоқоннинг болалари эканлиги айтилган. Шу аснода туркийларнинг бошқа аслзода уруқ (уруғ) лари ҳакида изоҳлар баён қилинган. Нужум илмининг билимдони Алоуддин Абу-л-Ҳасан Али ибн Муҳаммад Самарқандий Қушчи (Кутчи)нинг ҳаёт йўли, илмий ишлари, унинг Самарқанд астрономия илмий мактабидаги фаолияти, илмий кашфиёт учун муҳим бўлган кенглик нуқтасини топиш ва “Зижи жадди Кўрагоний” юлдузлар жадвалини тузишдаги хизмати, илмий мактаб топшириқларини ҳамда давлат вазифасини сидқидилдан бажариши кабилар масалалар шарҳланган. Шунингдек Али Қушчи томонидан Самарқанд кутубхонасидаги ноёб китобларнинг яширилиши, унинг Туркиядаги илмий фаолияти, Самарқанд астрономия илмий мактабининг ютуқларидан Европа олимларини хабардор этиши сингари жаҳоншумул хизматини ёритиб беришга бағишлиланган.

**Калит сўзлар:** Али Қушчи, кутчи уруғи, шогирд, Мирзо Улугбек, расадхона, кенглик нуқтаси, кутубхона, алгебра, астрономия, геометрия, илдиз, “ижобий”, “салбий”, қўллэзма, юлдузлар жадвали.

**Аннотация:** В данной статье приводятся сведения о жизни и творчестве великого учёного Али Қушчи, добившегося звания “Птолемея своего времени”, а также об его отце и его непростом, а знатном происхождении. Говорится о том, что род Кутчи являются потомками великого Кутлуга (Кут+луғ, Гудулу), спасшего, приведшего к освобождению тюркские рода и племена Элтариш кагана. На этой основе рассказывается и о других тюркских родах и племенах, приведены сведения о них. В ней показан жизненный путь знатока астрономии (Нужум) илмининг билимдони Алоуддин Абу-л-Ҳасан Али ибн Муҳаммад Самарқандий Қушчи (Кутчи)нинг ҳаёт йўли, его научные труды, его деятельность в научной школе астрономии города Самарканда, нахождение им точки широты, столь важной для научных открытий и его труды, вложенные в составление таблицы звёзд “Зижи жадди Кўрагоний”, выполнение им научных заданий и задач государственного значения. Вместе с тем, здесь рассказано о том, как Али Қушчи сумел укрыть редчайшие книги Самаркандской библиотеки, а также о его научной деятельности в Турции, о его заслугах в доведении до Европы научных достижений Самаркандской научной школы астрономии.

**Ключевые слова:** Али Қушчи, род кутчи, ученик, Мирзо Улугбек, обсерватория, точка широты, библиотека, алгебра, астрономия, геометрия, корень, “положительный”, “отрицательный”, рукопись, звёздная таблица.

**Annotation:** In this article we notice about Ali Kushchi also known as “That time’s Batlimus” also about his father and their root family. Also we can see Kutchi’s (Boxer) tribe who took part to give liberty for Turkish tribes Kutlug (Gudulu) and they were Eltarish khan’s children and other explanation about aristocrate Tourkish tribes. In this article we notice some focts about Ali Kushchi and other aristocrates about Tourkish tribes. Also here given fomous sceentist Alouddin Abu-l-Khasan Ali ibn Mukhammad Samarkandiy Kushchi’s life, his discovery about finoling width point, finoling out “Ziji jaddi Ko’ragony” table about location of stars and his important mission in politics. Ali Kushchi was famous with his books about astronomy and he hide valuable books in library. In this article it is noticed his great work in Turkiy and his altivity to aware of Evrope about sceentific school of Sammarkand.

**Keywords:** Ali Kushchi, clan qutchi, apprentice, Ulugbek, observatory, point of width, library, algebra, astronomy, geometry, root, positive, negative, manuscript, astronomical table.

Tarixiy manbalarda **Nuh yalavaj** “Turonzamin va Turkistonni **Yofas** alayhissalom uchun asrab qo‘yan edi<sup>1</sup>” deyilgan, shuning uchun unga **“Abut-turk”** sifatini berishgan. Yofas ibn Nuhning ikkinchi nomi **Tur** bo‘lib, uning to‘qqiz o‘g‘lidan tarqagan ellar **turlar**, ular yashagan joy esa **Turon** deb atalgan.

Turkiylar xaiqlarni xitoy zulmidan ozodlikka olib chiqqan buyuk **Qut+luq**, ya’ni **Eltarish xoqonning** avlodlari **qutchilar** deb atalgan. Xoqonning ismi xitoy manbalarida **Gudulu<sup>2</sup>** shaklida uchraydi. Toshbitiklarda Qutlug‘ xoqonning 681-yilda chinlarga qarshi kurashib, Ko‘kturklar davlatini qayta tiriltirgani haqida hikoya qilingan<sup>3</sup>. Ana shu tarixiy dalilga asoslangan turkiyshunos olim Nasimxon Rahmon Qutluqxon xitoyliklar istilosiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targanligi va keyinchalik Eltarish nomini olganligi yozgan<sup>4</sup>. **Qutji** etnonimning o‘zagi “**qut**” (baxt) bo‘lib, unga **-ji** so‘z yasovchi qo‘simechasing qo‘shilishidan yuzaga kelgan. Keyinchalik “**qutji**” so‘zi fors tili ta’sirida “**qutchi**” ga aylangan. Tildagi singishish (assimilyasiya) hodisasi sababli “**qutchi**” atamasi “**quchchi**” shakliga kelib qolgan. Qutchilarning turkiy urug‘ ekanligi Mavarounnahr, Yettisuv, Qashqar, Qirg‘iziston va Janubiy Sibirda yashashi haqida boshqa olimlar ham aytib o‘tishgan<sup>5</sup>. Ayrim qadimiy lug‘aviy birliklar, jumladan Tibet terminining turkiy muqobili bo‘lgan **Tanqut**, ya’ni **Tangriqut** atamasi tarkibida ham “**qut**” so‘zi mavjuddir<sup>6</sup>. Bundan shuni bilish mumkinki, turkiylarda “**qut**” (baxt) so‘ziga juda hurmat bilan qarashgan. Qutlug‘xonning tug‘ishgan

<sup>1</sup> Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. Т., “Чўлпон” нашриёти, 1994, 34-бет.

<sup>2</sup> Ф.Абдураҳмонов, А.Рустамов. Қадимги туркий тил. Ўқитувчи. – Т.: 1982. – 166 бет.

<sup>3</sup> Усмон Турк. Туркий халқлар мафкураси (туркчадан Улугбек Абдулваҳоб таржима қилган). Тошкент, “Чўлпон” нашриёти. 1995, 84-бет.

<sup>4</sup> Насимхон Раҳмон. Турк хоқонлиги. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993, 145 бет.

<sup>5</sup> Турон қавмлари. Тошкент, “Истиқбол” нашриёти. 2008, 209-бет. Турон қавмлари. Тошкент, “Истиқбол” нашриёти. 2008, 209-бет.

<sup>6</sup> Абдуқаҳхор Иброҳимов. Бизким ўзбеклар. Тошкент, “Шарқ” нашриёти. 2011, 396-бет.

ukasidan tarqalgan surriyotlar “**nayman**”lar nomini olgan. Qiyot, qo‘ng‘irot urug‘lari esa Eltarish xoqon o‘g‘li **Bilga hoqonning** bolalari hisoblanadi. Bilga xoqonning asl oti Xitoy yilnomalarida Mungulxon deb berilgan<sup>7</sup>. Undan tarqagan avlod “**mung+ul**” (aslzoda) degan umumiy nom bilan atalgan. Ushbu so‘z arabiyl talaffuzda o‘zgarib “mug‘ul”ga aylanib qolgan. Mazkur termin inglizchada mughul (aristocrat), ruschada esa могол (аристократ) shaklida aytildi. Turkiy tilda ana shu so‘zga paronim bo‘lgan “**mun+gul**” termini ham bor. **Mun+gul** atamasi “mongol”, ya’ni “yilqichi” ma’nosini bildiradi va inglizchada mongolian (groom), ruschada esa монгол (конюх) tarzida beriladi. Bizning aytim olimlarimiz mazkur paronim terminlarni farqlashmaydi yoki farqlashni istashmaydi.

Turkiylarning aslzodasi bo‘lgan **o‘kuzbek** (qutji, qiyot, qo‘ng‘irot, nayman)lar boshqa turkiy ellarni oqilona boshqarishgan va tartibli davlat tizimini shakllantirishgan. O‘kuzbeklar otasini o‘ta darajada hurmat qilgani va ulug‘ sanagani bois Tangri ularga beqiyos darajada aql-zakovat ato etgan. Shu sababli o‘kuzbeklar dunyo tamaddunini boshlab bergen va doimo tamaddun asoschilari sifatida qadrlangan qavmlardir. Dunyo tamadduniga ulkan hissa qo‘shgan o‘kuzbeklardan juda ko‘p mashhur zotlar yetishib chiqqan.

Ana shunday zotlardan biri buyuk mutafakkir Mirzo Ulug‘bekning shogirdi “farzandi arjumand”i maqomiga erishgan Alouddin Abu-l-Hasan Ali ibn Muhammad Samarcandiy Qutji//Qushchi dir. Uning ajdoddari aslida kitoblik bo‘lib, keyin o‘rdakent (poytaxt) Samarcandga ko‘chiib kelishgan. Alining otasi Muhammad Qutji Amir Temur qarorgohining boshlig‘i bo‘lgan<sup>8</sup>.

Yer yuzida Ko‘k (osmon)dagi sayyora va yulduzlar juda tiniq ko‘rinadigan beshta **enlama** (kenglik) **nuqta** bor. Agar ana shu nuqtalar chiziqlar orqali birlashtirilsa, enlama (aylana) shakl yuzaga keladi. Shuning uchun qutjilar o‘zlarining asosiy tamg‘asi sifatida qo‘maloq, ya’ni quyoshga o‘xhash shaklni olishgan va ularning tug‘i(bayrog‘i)da ham ana shunday shakl aks etgan.




<sup>7</sup> F. Abdurahmonov, A. Rustamov. Қадимги туркӣ тили. Ўқитувчи. – Т.: 1982. – 121 бет.

<sup>8</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. Т., “ЎзМЭ” нашриёти, 2000, 208-бет.

**Beshta enlama (kenglik) nuqta**

Bu holat qutjilarning qadimiylaridan osmon ilmidan yaxshi xabardor ekanligi yana bir bor tasdiqlaydi. Qutjilar yer yuzidagi beshta enlama (kenglik) nuqtalarini bilishgan. Keyinchalik olimlar tomonidan ushbu joylar yana qayta aniqlandi. Jahon munajjimlik fani amaliyotida eng avval O'zbekiston hududidagi enlama (kenglik) nuqta qutjilar, ya'ni Ali Qutji//Qutchining ajdodlari tomonidan topilgan. Ular bu joy, Niyoztepani Mirzo Ulugbekka ko'rsatishgan. Mirzo Ulug'bek o'sha joyga kichik rasadxona qurdirgan. Samarqand nujum ilmi akademiyasi olimlaridan G'iyyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumi, Mirzo Ulug'bek Niyoztepadagi kichik rasadxonada turib osmon jismlari harakatini aniq kuzatishgan.



Ali Qushchi (1402-1474)




Samarqand olimlari

Keyinchalik kuzatuv natijalari Samarqanddagisi rasadxonada Mirzo Ulug'bek va Ali Qutji tomonidan mukammal tahlil qilinib ilmiy xulosalar chiqarilgan.



Samarqanddagisi rasadxona



Chunki Samarqanddagi rasadxona qurilishi tugamasdan ustoz olimlar G'iyosiddin Koshiy va Qozizoda Rumiy vafot etishgan. Mirzo Ulug'bek "Ziji jadidi Ko'ragoni" asarini mualliflari sifatida qo'lyozma yakunida G'iyosiddin Koshiy, Qozizoda Rumiy, o'zi (Mirzo Ulug'bek) va Ali Qutji//Qushchini ko'rsatgan. Ushbu dalil Samarqand rasadxonasida emas, balki Niyoztepa (hozirgi Kitob tumani)dagi kichik rasadxonada yulduzlar kuzatilganligini tasdiqlaydi.

Mirzo Ulug'bekning fojiali olimidan so'ng 1471-yili Ali Qushchi juda ko'p urug'doshlari va shogirdlarini olib Ozarbayjonga, ya'ni Tabrizga oqquyunlilar hukmdori urug'doshi Uzun Hasan huzuriga borgan. Qutjilar Tabrizda ikki yil istiqomat qilishgan. So'ngra Turkiya sulton Mehmed (Mahmud) **II Fotih** Ali Qushchini Istambulga taklif qiladi. Ali Qushchi Uzun Hasanning roziligi bilan 1472-yili Istambulga sulton huzuriga tashrif buyuradi. Mehmed (Mahmud) II Fotih sulton uni Istanbulda qolishga ko'ndirgan. U sultonning farmoni bilan Tabrizga qaytib 200 oila, mingdan ortiq urug'doshlarini Istanbulga olib ketgan. Istanbuldag'i Sulton Ali Qushchini Ayo So'fiya madrasasiga bosh mudarris etib tayinlaydi. Bu haqda turk olimi Abdulhaq Adnan ham ma'lumot berib, Ali Qushchi to'g'risida maqola yozgan. Ammo Abdulhaq Adnanning maqolasida Ali Qushchining taxallusi va tabaqasiga tegishli g'alizliklar bor. Ali Qushchi o'zining xolis xizmati bilan ilm-fanda Samarqand akademiyasi olimlari qo'lga kiritgan beqiyos zafarlarni G'arb olimlariga yetkazgan. Buyuk olim Ali Qushchi 1474-yili 72 yoshida vafot etgan. Ali Qushchi vafotidan so'ng uning qarindosh va shogirdlari Miram Chalabiy, Husayn Birjandiy, Bahovaddin Omuliy, Najmiddin Alixon va boshqalar uning ilmiy ishlarini davom ettirishgan<sup>9</sup>.

Ali Qushchi serqirra, ijodkor olim sifatida o'ttizga yaqin ilmiy asar yozgan: "**Risolayi ashkol al-qamar**" ("Oyning shakllari haqida risola"), "**Matematika va astronomik jo'g'rofiya**", "**Mu'jaz fi-t-tib**" ("Tabobatning qisqa bayoni"), "**Risola dar ilmi hay'at**" ("Astronomiya ilmi haqida risola"), "**Risolayi fathiya**" ("G'alaba risolasi"), "**Risolayi Muhammadiya**" ("Muhammad risolasi"), "**Tarixi xoqoni Chin**" ("Chin xoqonining tarixi"), "**Mahbub al-hamo'il fi kashf al-maso'il**" ("Masalalarni yechishda qo'llanadigan maqbul yon daftari"), "**Risola fi-mavzuot al-ulum**" ("Ilmlarning mavzulari haqida risola"), "**Hisob haqida risola**", "**Kasrlar haqida risolasi**" va boshqalar.

Ali Qushchi Ulug'bekning "Ziji Ulug'bek", Nasruddin Tusiyning Ziji Elxoni, Qutbiddin Sheroziyning "Tuhfat ash-shohiya fil-hay'at", Nasruddin Tusiyning "Tadrij" nomli astronomiya va matematikaga oid asarlariga, Taftazoniy, Nasruddin Tusiy, Qozi Azuddinlarning falsafa, huquq va tilshunoslikka oid asarlariga mukammal sharhlar yozgan.

Xulosa qilib aytganda, yurtdoshimiz va millatdoshimiz buyuk olim Alouddin Ali ibn Muhammad Qutji//Qushchi dunyo ilm fanining rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Shu bilan birga Mirzo Ulug'bek boshchilik qilgan ilmiy maktab, Samarqandda erishilgan ilmiy yutuqlar va astronomik jadval bilan yevropa olimlarini tanishtirgan. Ali Qushchining xizmati tufayli Samarqand ilmiy akademiyasining ilmiy yutuqlari O'rta Sharq, Yaqin Sharq va Yevropaga tarqalgan.

## Адабиётлар рўйхати

<sup>9</sup> Аҳадова М. Ўрта Осиёлик машҳур олимлар ва уларнинг математикага доир ишлари. Т., "Ўқитувчи", 1983. 211-бет.

*OAK Index bazalari : research gate, research bib.**Qo'shimcha index bazalari: zenodo, open aire, google scholar.*

1. Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. Т., “Чўлпон” нашриёти, 1994, 34-бет.
2. F.Абдураҳмонов, А.Рустамов. Қадимги туркий тил. Ўқитувчи. – Т.: 1982. – 166 бет.
3. Усмон Турк. Туркий халқлар мафкураси (туркчадан Улугбек Абдулаҳоб таржима қилган). Тошкент, “Чўлпон” нашриёти. 1995, 84-бет.
4. Насимхон Раҳмон. Турк хоқонлиги. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1993, 145 бет.
5. Турон қавмлари. Тошкент, “Истиқбол” нашриёти. 2008, 209-бет. Турон қавмлари. Тошкент, “Истиқбол” нашриёти. 2008, 209-бет.
6. Абдуқаҳҳор Иброҳимов. Бизким ўзбеклар. Тошкент, “Шарқ” нашриёти. 2011, 396-бет.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. Т., “ЎзМЭ” нашриёти, 2000, 208-бет.
8. Аҳадова М. Ўрта Осиёлик машҳур олимлар ва уларнинг математикага доир ишлари. Т., “Ўқитувчи”, 1983. 211-бет.

